TOSHKENT VILOYATINING SANOAT HUDUDLARIDA YASHOVCHI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING ANTROPOMETRIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

UDK: 611.019-611.7:616-071.388 (575.111)

[1]Xatamov A.I. [2]Raxmanov O.R. [3]O‘ktamov J.

[1,2]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti. Tibbiy fundamental fanlar kafedrasi,Toshkent.O**‘zbekiston.**

[2]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Stomatalogiya fakulteti DNT312U gruh talabasi.

Mavzuning dolzarbligi: So‘nggi yillarda sanoat korxonalarining ko‘payishi atrof-muhit holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon ayniqsa o‘sib kelayotgan avlod salomatligiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning sog‘lig‘ini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Shu sababli sanoat hududlarida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning antropometrik ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularni nazorat hududidagi bolalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Tadqiqot maqsadi: Sanoat hududlarida yashovchi 7–12 yoshli bolalarning antropometrik ko‘rsatkichlarini kompleks baholash va ularning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot Toshkent viloyatining sanoat hududlarida yashovchi 7–12 yoshli bolalar orasida o‘tkazildi. Umumiy tanlama hajmi 1149 nafar bolani tashkil etdi. Ulardan 1019 nafari asosiy guruhni, 130 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Antropometrik o‘lchashlar antropometr, kaliper, santimetr lentasi, rostomer va tibbiy tarozi yordamida amalga oshirildi. Bo‘y uzunligi, tana vazni, ko‘krak qafasi aylanasi, qo‘l va oyoq uzunliklari hamda bosh va yuz morfometrik ko‘rsatkichlari o‘lchandi.

Olingan ma’lumotlar deskriptiv va analitik statistika usullari yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari: Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning morfometrik ko‘rsatkichlari yosh va jinsga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. 7–8 yoshda sanoat hududidagi bolalarda ayrim ko‘rsatkichlar yuqoriroq bo‘lgan bo‘lsa, 9 yoshdan boshlab nazorat hududi bolalarida ayrim o‘sish ko‘rsatkichlari ustunligi kuzatildi. Eng tez o‘sish 10–11 yosh oralig‘ida qayd etildi. Qiz bolalarda pubertat davri boshlanishi sababli 11 yoshdan boshlab o‘sish sur’ati yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari sanoat hududlarida yashovchi bolalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari muayyan ekologik omillarga bog‘liq holda farqlanishini ko‘rsatdi. Ushbu ma’lumotlar bolalar salomatligini monitoring qilish hamda hududiy antropometrik normativlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.